

# Qishloq Qurilish Bank

## E'lon

ATB "Qishloq qurilish bank" tomonidan davlat xaridlari amalga oshirilishida tanlov komissiyasi organlari, xarid tashabbuskori, ishchi organ, ishchi guruh a'zolari hamda xaridga aloqador bo'lgan boshqa shaxslarning o'qim-qoidalarini

ATB "Qishloq qurilish bank" Markaziy idorasi va filiallari tomonidan davlat xaridlari amalga oshirilayotganda quyidagi o'qim-qoidalarini rioya qilinishi lozim:

1. Tanlov (tender) komissiyasi a'zolari soha bo'yicha ma'lumoti bo'lishi, doimiy ravishda o'z bilim malakasini oshirib borishi va shu sohada kasbiy mahoratli mutaxassis bo'lishi lozim;

2. Davlat xaridi amalga oshirish jarayonida xaridga aloqador shaxslar qaror qabul qilinmaguncha ma'lumot oshkor qilmaydi;

3. Tanlov (tender) komissiyasi a'zolari: - bir biri bilan yoki tanlov (tender) ishtirokchilari bilan til biriktirmaydi; - tanlov (tender) ishtirokchilari bilan muloqatga kirishganda qonun doirasida, xushmuomala bilan javob beradi; - qaror qabul qilishda, qonuniyatchilik, o'z bilim, fikr va tahlillariga asoslangan holda mustaqil qaror qiladi.

4. Tanlov (tender) komissiyasi a'zolari va boshqa xodimlar tomonidan ishtirokchilar hamda ijrochilardan moddiy va nomoddiy boyliklarni olish taqiqlanadi.

5. Tanlov (tender) komissiyasining a'zolari hamda boshqa xodimlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lishi mumkin bo'lgan istalgan shaxsiy nafni bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas;

Ushbu bandning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar: - shaxsiy manfaatdor emasligini, shuningdek o'z oila a'zolarining manfaatdor emasligini kafolatlashi kerak, aks holda shaxsiy manfaatdorlik hamda boshqa ishtirokchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi yoki kelishi mumkin; - manfaatlarining istalgan potensial, taxmin qilinayotgan yoki mavjud to'qnashuvi haqidagi axborotning oshkor etilishini kafolatlashi kerak. Mavjud yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar topgan, ushbu bandning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar bu haqda bevosita rahbarga xabar qilib, bir vaqtning o'zida vakolatli organni xabardor etishi shart. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rish shart.

21.09.2018

### **ATB "Qishloq qurilish bank" matnlarni tarjima qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi "outsorsing" tashkilotlar o'rtasida tanlov e'lon qiladi.**

Tanlov savdolari predmeti: Matnlarni o'zbek, rus va ingliz tillariga tarjima qilish.

Tanlovga tijorat takliflari 2018 yilning **28 sentyabr kuni soat 17:00** ga qadar qabul qilinadi.

Tanlov shartlari:

- tarjima kilinadigan betlar kompyuter belgilari asosida hisoblanadi va 1 standart bet 1800 belgidan kam bo'lmasligi lozim (ochiq joy - probel hisoblanmaydi).

Batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish uchun quyidagi manzilga yoki telefon raqamga murojaat qilishingiz mumkin:  
Manzil: 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 18 A-uy.

Telefon: (+998 71) 150-72-63, 150-45-34, [www.qqb.uz](http://www.qqb.uz)

